

VEGETATIV USULDA ATIRGUL O'SIMLIKINI KO'PAYTIRISH VA KO'CHATINI YETISHTIRISH

Xudoyberganova Nafosat Qudrat qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU "Meva –sabzavotchilik " kafedrası

O'rmonchilik va aholi yashash joylarni ko'kalamzorlashtirish yo'nalishi

3-bosqich talabasi

nafosat0477 @gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi kunda vegetativ usulda ko'chat yetishtirish orqali bitta o'simlikning juda ko'plab klon nusxalarini yaratish mumkin. Ushbu maqolada atirgul o'simligini vegetativ usulda ko'paytirishning asosiy yo'llari va ko'chat yetishtirish texnologiyasi yoritilgan. Qalamcha, payvandlash usullarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning samaradorligi va qo'llash sharoitlari tahlil qilingan.. Tadqiqot natijalari vegetativ ko'paytirish atirgulning nav belgilari saqlanishini ta'minlashi hamda qisqa muddatda sog'lom ko'chat olish imkonini berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: atirgul, vegetativ ko'paytirish, qalamcha, payvandlash, ko'chat yetishtirish, klon, genetik bir xillik, sog'lom ko'chat

Абстрактный. В настоящее время существует возможность создания множества клонов одного растения путем вегетативного размножения. В данной статье рассмотрены основные способы вегетативного размножения розы и технология выращивания саженцев. Проанализированы особенности методов черенкования и прививки, их эффективность и условия применения. Результаты исследования показывают, что вегетативное размножение обеспечивает сохранение сортовых признаков розы и позволяет в короткие сроки получать здоровые и качественные саженцы.

Ключевые слова: Роза, Вегетативное размножение, Черенок, Прививка, Выращивание саженцев, Клон, Генетическая однородность, Здоровый саженец

Abstract . Nowadays, through vegetative propagation, it is possible to produce a large number of clone copies from a single plant. This article describes the main methods of vegetative propagation of rose plants and the technology of seedling production. The specific characteristics of cutting and grafting methods, their effectiveness, and conditions of application are analyzed. The research results show that vegetative propagation ensures the preservation of varietal traits of roses and makes it possible to obtain healthy seedlings in a short period of time.

Keywords: rose, vegetative propagation, cutting, grafting, seedling production, clone, genetic uniformity, healthy seedling.

Kirish. Atirgul — gulchilikda eng ko‘p yetishtiriladigan manzarali o‘simliklardan biri bo‘lib, u nafaqat go‘zal gullari, balki yoqimli hidi va turli ranglari bilan ham ajralib turadi.

Ekish uchun kerakli bo‘lgan novdalar sifatida atirgulning gullay boshlagan yoki gullab bo‘lgan shohlarining o‘rta yoki yuqori qismlari ishlatiladi. Bu novdalarning kurtaklari hali o‘sib ulgurmagan, 3-4 bo‘ginli va 10-15 sm uzunlikda bo‘lishlari talab qilinadi. Novdalarning pastki qismi kurtak tagidan, ustki qismi esa kurtak ustidan kesiladi. Novdaning pastki bo‘g‘inlardagi barglarning kurtakka yopishgan qismining bandlari 0,5 sm uzunlikda kesib tashlanadi. Uchinchi va to‘rtinchi bo‘ginlardagi barglarning esa tahminan yarmi kesib tashlanadi. Barglarning bunday usulda yo‘qotilishi va kesilishi novdadagi suvning tezda yo‘qolishining va uning qurib qolishini oldini oladi.

So‘nggi yillarda atirgulning ko‘chat yetishtirish usullariga qiziqish oshgan bo‘lib, bu ayniqsa manzarali bog‘lar va gulchilik sanoati uchun muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida «...qishloq xo‘jaligida ekin maydonlari va ekinlar tarkibini optimallashtirish, ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish hamda hosildorlikni oshirish....» muhim strategik vazifalaridan biri qilib belgilab berilgan. [2]. Bundan tashqari ko‘chatlar ekish va ularni parvarishlash hamda sug‘orish tadbirlarini moliyalashtirish masalalari vazirlik, idora va xo‘jalik birlashmalarining yillik xarajatlar smetasida hamda atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatishning I va II toifalariga mansub sanoat korxonalari, maxsus iqtisodiy zonalar hududlarida joylashgan sanoat korxonalarining yillik biznes rejalarida ko‘zda tutiladi. Barcha shahar va qishloqlar, aholi yashash hududlari, sanoat korxonalari, o‘quv maskanlari va shifoxonalarning yanada ko‘rkam bo‘lishi ular atrofida barpo etilgan yashil o‘simlik dunyosi kengaytirish bilan bog‘liq[3].

Asosiy qism. Atirgulni vegetativ usulda (asosan qalamcha orqali) ko‘paytirish — ona o‘simlik xossalarini saqlab qoluvchi samarali usuldir. Yozda (iyun-iyul) gullagan novdalardan 15-20 sm li qalamchalar kesib, barglarini kamaytirib, ildizlantiruvchi vosita bilan ishlov beriladi va nam tuproqqa ekiladi. Qalamchalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuridan himoyalani, nam muhitda 3-4 haftada ildiz otadi.

Atirgulni vegetativ ko‘paytirish bosqichlari Qalamcha tanlash: Gullab bo‘lgan, ammo to‘liq qotib ulgurmagan (yarim yog‘ochlashgan) sog‘lom novdalar tanlanadi. Qalamcha qalinligi qalamdek bo‘lishi tavsiya etiladi.

- **Tayyorlash:** Qalamcha 15-20 sm uzunlikda, pastki qismi kurtak ostidan qiya, yuqorisi esa tekis kesiladi. Pastki barglar olib tashlanib, yuqori barglar yarim qisqartiriladi.

- **Ekish:** Qalamchalar nam, unumdor tuproqqa (qum va torf aralashmasi) 2-3 sm chuqurlikka ekiladi.

• **Parvarish:** Ekin usti plyonka yoki banka bilan yopilib, yuqori namlik va issiqlik ta'minlanadi. To'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri tushmaydigan, soyali joyda saqlanadi.

• **Ildizlash:** 3-4 hafta ichida ildiz otadi, shundan so'ng yosh o'simliklar ochiq havoga moslashtirilib, keyinchalik doimiy joyiga ko'chirib o'tkaziladi.

Qalamcha olish jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, avvalo, sog'lom va kuchli o'simlik tanlash kerak. Eng yaxshi natijaga erishish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor bering Tanlangan shox kasallik va zararkunandalardan holi bo'lishi kerak Qalamcha uchun oldingi yilgi o'sgan shoxlar tanlanadi, chunki ular tez ildiz chiqaradi va sog'lom ko'chat beradi. Qalamchani uzunligi odatda 10–15 sm bo'lishi maqsadga muvofiq. Qalamchani pastki qismi tekis va toza kesilishi, barglar esa yuqori qismda saqlanishi kerak. Pastki barglarni olib tashlash ildizlanishni osonlashtiradi va ortiqcha namlikni kamaytiradi. 2.]

Qalamchani tayyorlash jarayoni uning muvaffaqiyatli ildizlanishi uchun juda muhim Qalamchani pastki qismi kesilib, ildiz chiqarishni rag'batlantiruvchi vosita bilan aralashtiriladi (AIB yoki IBA) Agar stimulyator ishlatilmasa, qalamcha tabiiy ravishda ildiz chiqaradi, lekin jarayon uzoqroq davom etadi. Yuqori qismdagi barglar kesilishi, suv yo'qotilishini kamaytiradi va ildizlash jarayonini tezlashtiradi.[3.]

Qalamchani ekish uchun tuproq yengil, havodor va namlikni yaxshi ushlab turadigan bo'lishi kerak. Eng ko'p ishlatiladigan aralashma: qum, torf va gumus. Qalamcha tuproqqa 2–3 sm chuqurlikda ekiladi.

Tuproqni mulchalash ildizlanishni rag'batlantiradi va namlikni ushlab turadi. Ekilgan qalamchalar to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalaniishi kerak. Agar istasangiz, ustidan shaffof plastik idish qo'yish mumkin, bu issiqlik va namlikni ushlab, ildizlash jarayonini tezlashtiradi.[4.]

Parvarish va nazorat Ildizlanish jarayonida qalamchalarni ehtiyotkorlik bilan parvarish qilish kerak:

Tuproqni doimiy namlikda saqlash, lekin ortiqcha sug'orishdan saqlanish. Har kuni havoni yangilash uchun qopqoqni ochish.

Zararkunandalar va kasalliklardan himoya qilish uchun muntazam tekshirish. Haddan tashqari issiqlik yoki sovuqdan saqlash.[5]. Ildizlanish va ko'chatni ko'chirish Odatda qalamchalar 3–6 haftada ildiz chiqaradi. Ildizlar yetarlicha rivojlanganidan so'ng, ko'chatni doimiy joyga ko'chirish mumkin, Dastlab ko'chatlarni soya joyda saqlash, keyin asta-sekin quyoshga chiqarish tavsiya etiladi.

Ko'chatlar mustahkam bo'lgach, ular bog'ingizning asosiy gullari sifatida joylashadi. Odatda qalamchalar o'simlik turidan kelib chiqqan holda bahorda yoki kuzda tayyorlab ko'mib qo'yiladi. Bahorda kesib tayyorlangan yoki kuzda kesib olib qo'yilgan qalamchalar hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ekiladi. Qalamchalar odatda chuqurchalarga tikka holatda ekildi, bunda qalamchani 2 -3 kurtagi joylashgan yuqori qismi tuproq yuzasida qoldiriladi. Qalamcha ekilgach, uning

atrofidagi tuproq yengil zichlandi. Qalamchalarning qatorlari bir-biridan 12-15 sm masofada ekilib, qatorlar orasi 70-80 sm bo'lib bunda 1 gektar ko'chatzorga 125000 va undan ham ko'proq qalamcha joylashtirish mumkin. Ekilgan qalamchalar aprel oyida ko'karishni boshlab, kurtaklari bo'rtib ilk barglari paydo bo'ladi, bu rivojlanish qalamchadagi oziq moddalar zahirasi hisobiga amalga oshadi.

Xulosa. O'rganilgan ilmiy ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki o'simlik qalamchalarini vegetativ usullarda ko'paytirish xuddi o'sha o'simlikning klonini yaratish mumkinligini ta'kidlaydi.

Bu usul yordamida yangi o'simliklar asl atirgulning barcha sifatlarini, jumladan rangini, gullash davrini va shaklini saqlab qoladi. Ildiz otishni tezlashtirish uchun maxsus stimulyatorlar yoki tabiiy vositalardan foydalangan holda qalamchalar tayyorlandi, bu jarayon ko'chatlarning tez va sog'lom ildiz chiqarishini ta'minladi.

Shuningdek, qalamchalarni ekishdan oldin sog'lom va kuchli shoxlar tanlandi, tuproq yengil va havodor qilib tayyorlandi, va o'simliklar doimiy namlik va nazorat ostida saqlandi. Natijada, ko'chatlar mustahkam o'sib, bog'imizni chiroyli, gullab-yashnayotgan atirgullar bilan to'ldirdi.

Xulosa qilib aytganda, qalamchadan ko'paytirish nafaqat oson va samarali, balki bog'bonlarga o'z bog'ida sog'lom, sifatli va nafis atirgullarni yetishtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni PF-199-son, 23.11.2023 y. bo'yicha xarakatlar strategiyasi"

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti- ning farmoni.—Toshkent, (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda), "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevral, 28(6722)-soni, –1-2 betlar.

3. <https://kitobxon.com/oz/asar/4765>

4. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020;